



QORAQAOLPOG'STON HUDUDIDAGI QORAMOLLARDA JUNXO'RLARNING TARQALISHI

Magistrant: Gaypnazarov S.B.

Assisent: Bekmuratov K.R.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali.*

Kirish. Mamlakatimizda keng ko‘lamda islohotlar olib borilmoqda. Keyingi yillarda chorvachilikni dori-darmonlar, insektitsidlar va boshqa preparatlar bilan ta’minlanishi qiyinlashuvi, hayvonlar migratsiyasining oshishi, chorvachilik binolaridagi sanitariya holatining yomonlashuvi oqibatida qoramollar o‘rtasida ektoparazitarlarni, ayniqsa, junxo’rlarning keskin ko‘payib borishi kuzatilmoque. Bu esa chorva mollari mahsuldorligini oshirish va aholini sifatli va ekologik toza chorva mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishdek dolzarb muammolarni amalga oshirishda jiddiy to‘sinqlik qilib kelmoqda. Junxo’rlar qoramollar o‘rtasida eng ko‘p tarqalgan ektoparazit bo‘lib, qoramollarda kuchli doimiy bezovtalikni chaqiradi, junlari tushadi, terisi dermatit va giperkaratozga uchraydi, ishtahasi susayadi, natijada yosh mollarning o‘sish va rivojlanishdan orqada qoladi, sog‘in sigirlarning sut mahsuldorligi 30-50 foizgacha kamayadi, ba’zan umuman sut berishdan to‘xtaydi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlar Qoraqolpog‘iston Respublikasining Nukus tumani hududidagi chorvachilik xo‘jaliklari, shaxsiy va xususiy mollarda, to‘qay va yaylovlar sharoitida aholi qarashli jami 5 ta chorvachilik fermalarida va shaxsiy xonardonlardagi 350 boshdan ortiq qoramollar parazitologik tekshirildi. Ushbu parazitologik tekshiruvlar mobaynida qoramollar o‘rtasida **Bovicola bovis** – junxo’rlari eng ko‘p tarqalganligi aniqlandi. Junxo’rlar butun er yuzida qoramollar orasida eng ko‘p tarqalgan doimiy ektoparazit bo‘lib, Arthropoda tipiga, Insecta sinfiga, Mallophaga turkumiga, Trichodectidae oilasiga, Bovicola avlodiga, Bovicola bovis turiga mansub hasharotlar hisoblanadi.



Bovicola bovis – 1,0-2,0 mm kattalikdagi kichkina, qanotsiz, tanasi uzunchoq ovalsimonga o‘xshash, sarg‘ish tusdagi hashorot bo‘lib, og‘iz apparati kemiruvchi tipda, ko‘zlari yaxshi rivojlanmagan, uch juft kichik oyoq panjacha uchlari tirnoqcha bilan tugaydi, qorin qismi segmentlangan, jun va tukchalar bilan har bir turga mos qoplangan.

Bovikolozning mavsumiy va oylik dinamikasi.

Junxurlar doimiy tekinxur tarzida hayot kechirishlari sababli hayvonlar tanasida yilning barcha mavsumlari davomida uchrab turishlari kuzatildi. Biroq ularning ekstensivligi va intensivligi fasllarga, iqlim va xo‘jalikning sanitariya sharoitlariga, chorvachilikni olib borish tizimlariga va boshqa ko‘plab ekologik omillarga binoan har xil tarzda kechdi. Binodagi yuqori namlik va qulay harorat qish oylaridagi quyosh nurlarining etishmovchiligi, hayvon junlarining uzun bo‘lishi, ularni sifatsiz oziqlantirish va zinch saqlanishlari juxurlarni rivojlanishi va tez tarqalishi uchun qulay sharoit tug‘diradi. Yoz oylariga kelib hayvonlar yaylovga chiqgach, quyosh nuri va quruqlik ta’sirida hamda hayvonlarning tullashi oqibatida ularning soni keskin kamayib ketishi kuzatildi.

Junxo‘rlarning keng tarqalishi, asosan, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilinmaydigan, oziqlanish va saqlash sharoitlari yomon bo‘lgan xo‘jaliklarda kuzatiladi. Shuningdek, qoramollarni uzoq masofalarga tashish (ayniqsa, davlatlararo migratsiya), jun, teri xom ashyosi yoki ifloslangan suv orqali ham ushbu parazitlarning tarqalishi mumkin.

Junxurlar qoramol organizmida barcha mavsumlarda uchraydi, ammo invaziya ekstensivligi va intensivligi mavsumga qarab o‘zgaradi. Masalan, dekabr-yanvar-fevral-mart-aprel-may oylarida zararlanish maksimal darajada, iyun-iyul-avgust-sentyabr oylarida minimal, oktabr-noyabr oylarida esa o‘rtacha holatda bo‘ladi, mavsumiy denamika bo‘yicha eng yuqori darajadagi zararlanish qish va bahor oylarida kuzatilishi ma’lum bo‘ldi (1-jadval, 1-diagramma).


Tadqiqot davomida yosh mollar katta yoshdagи qoramollarga nisbatan junxo‘rlarga ko‘proq chalinishi, bu parazitning epizootik tarqalish xususiyatiga ega

ekani, ya'ni ayrim hollarda butun podada ommaviy zararlanish holatlari kuzatilishi aniqlandi.

Qoramollar junxo'rlarining oylar boyisha tarqalish dinamikasi

1-jadval

Qoramollar yoshi	B.bovis fazalari	Mavsumlar boyicha ekstensiv zararlanish (EZ), foiz			
		Qish	Bahor	Yoz	Kuz
6 oylikgacha	Tuxum	72,0	98,0	22,0	36,0
	Lishinka	70,0	94,0	18,0	32,0
	Imago:	65,0	96,0	20,0	34,0
	Erkagi				
	Urg'oshisi	68,0	97,0	22,0	35,0
Katta yoshdag'i	Jami:	68,7	96,2	20,5	34,3
	Tuxum	70,0	96,0	18,0	30,0
	Lishinka	68,0	93,0	16,0	28,0
	Imago:	66,0	98,0	15,0	26,0
	Erkagi				
	Urg'oshisi	66,0	94,0	16,0	27,0
	Jami:	67,5	95,2	16,3	27,8
	Ortachasi:	68,1	95,7	18,4	31,0





1-diagramma. Qoramollar junxo‘rlarining oylar boyisha tarqalish dinamikasi

Xulosa. O‘tkazilgan parazitologik tadqiqotlar natijasida Qoraqolpog‘iston Respublikasining Nukus tumani hududidagi chorvachilik xo‘jaliklarida qoramollar orasida junxo‘rlar (*Bovicola bovis*) keng tarqalganligi aniqlandi. Ushbu ekto-parazitlar hayvonlar salomatligiga sezilarli darajada zarar yetkazib, mahsuldorlikning keskin pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, yosh mollar invaziyaga ko‘proq chalinishi, epizootik tarqalish xavfini kuchaytiradi. Shu boisdan, chorvachilik xo‘jaliklarida junxo‘rlarga qarshi profilaktik va davolovchi choralar ni tizimli ravishda amalga oshirish, sanitariya holatini yaxshilash, muntazam monitoring olib borish zarur. Bu orqali qoramol mahsuldorligini oshirish va hayvonlarning umumiy salomatligini saqlab qolish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI.

1. Рахимов, Мухамад, et al. "Распространенность экто-и эндопаразитов у животных." *in Library* 1.1 (2023): 19-22.
2. Pulatov, F. S., et al. "Prevalence of Ecto-and Endoparasites in Animals." *MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN*.
3. Dzhalolov, A. A., F. S. Pulotov, and A. Sh Ismailov. "Insecticidal property of bioinsecticide against bovicola ovis." *European Journal of Learning on History and Social Sciences* 1.7 (2024): 159-163.
4. Пулотов, Фахридин, К. Сайфиддинов, and III. Абдукхалимова. "Биопрепарат-Биоинсектицид." *in Library* 1.1 (2024): 85-89.
5. Yeshanova, T., and S. PulotovF. "TAWIQLARDIŃ ARGAS PERSICUS KENESI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222945>." *International scientific and practical conference*. Vol. 1. No. 1. 2024.
6. Рўзимуродов, А., et al. "Монография." *Пиретроидлар. Табиий ўчоқли ва трансмиссив касалликлар муҳофазаси. "Zarafshon" нашрёти ДК, Самарқанд-2018 й.*
7. Pulatov, F. S., A. A. Jalolov, and K. F. Saifiddinov. "The Spread of bovicolosis in sheep." *Central Asian Journal of Medical and Natural Science* 3.5 (2022): 239-241.



8. Пулотов, Ф. (2000). Эктопаразиты животных. *in Library*, 1(1), 209–210.
извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/31159>
9. Пулотов, Ф., Сайфиддинов, . К., & Абдухалимова, Ш. (2024). Биопрепарат -
Биоинсектицид. *in Library*, 1(1), 85–89. извлечено от
<https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/33572>
10. Boltaev, D. M., and F. S. Pulotov. "Epizootiology Of Bovicolliosis Of
Goats." *Texas Journal of Multidisciplinary Studies* 20 (2023): 8-11.